JIZZAX VILOYATI ZAFAROBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 14-aprel 73-3-50-Q/25 Zafarobod tuman hokimligi

Jizzax viloyati Zafarobod tumani hududidagi daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish va ularni pasportlashtirish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish va ulardan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 464-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekistonda “Yashil makon” umummilliy loyihasini yanada ommalashtirish, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish va ilg‘or texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-, 6- va 21_1-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish va ulardan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 464-sonli qarori hamda Jizzax viloyati hokimining 2024-yil 8-noyabrdagi 630-3-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

1. Zafarobod tumanida daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish va ularni pasportlashtirish bo‘yicha tuman ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2. Zafarobod tumani hududidagi daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish, xatlov natijalariga ko‘ra aniqlangan daraxtlarning turi, yoshi, bo‘yi, holati va joylashuv koordinatasini aks ettiruvchi pasportlarini shakllantirilsin.

3. Tuman ishchi guruhi (J.Sattarov):

Joylarga chiqqan holda daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish, hisobga olish va qayd etish;

daraxtlar reyestri ma’lumotlarini “Yashil makon” platformasiga kiritish;

xatlov o‘tkazishda yuz yoshdan oshgan daraxtlar aniqlanganda, ularni tabiat yodgorliklari sifatida muhofazaga olish uchun alohida reyestr yuritish;

daraxtlarni pasportlashtirish ishlarini samarali tashkil etish, tashkilot va idoralarning bu boradagi ishini muvofiqlashtirish, mavjud muammolarni tezkorlik bilan hal qilish choralarini ko‘rsin;

har oyda daraxtlarni pasportlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotlarni mahallalar kesimida tuman hokimligiga kiritib borsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari J.Sattarov hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i v.b. Sh.G‘aybullaev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **G‘.Eshpulatov**

Zafarobod tumani hokimining
2025-yil 14-apreldagi
73-3-50-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Zafarobod tumani hududidagi daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish va ularni pasportlashtirish bo‘yicha

TUMAN ISHCHI GURUHI TARKIBI

1.	*J.Sattaov*	Zafarobod tuman hokimining Qurilish, kommunikatsiyalar, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, *ishchi guruh rahbari*
2.	*Sh.G‘aybullaev*	Zafarobod tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i, *ishchi guruh rahbari o‘rinbosari*
3.	*M.Mo’minov*	Zafarobod tuman Prokuraturasi mas’ul xodimi
4.	*O‘.Noraliev*	Zafarobod tuman mahallalar uyushmasi boshlig‘i
5.	*Sh.Zokirov*	Zafarobod tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i
6.	*A.Obilov*	Zafarobod tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i
7.	*E.Begbo‘taev*	Zafarobod tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
8.	*S.Qobilov*	Zafarobod tuman irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i
9.	*J.Totliboev*	Zafarobod tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i
10.	*U.Rabbimov*	Zafarobod tuman Qo‘riqlash bo‘limi boshlig‘i
11.	*Z.Isoqulov*	Zafarobod tuman Adliya bo‘limi boshlig‘i
12.	*M.Uzoqov*	Zafarobod tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
13.	*B.Xojimurodov*	Zafarobod tuman Favqulotda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i
14.	*J.Alimqulov*	Zafarobod tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i
15.	*X.O‘razov*	Kadastr agentligining Zafarobod tuman bo‘limi boshlig‘i
16.	*J.Adilov*	Zafarobod tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
17.	*S.Suyarov*	Zafarobod tuman Agrobank rahbari
18.	*F.Jumanov*	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ ning Zafarobod filiali rahbari
19.	*Yo.O‘tamurodov*	“Hududgaz Jizzax” gaz ta’minotining Zafarobod filiali rahbari
20.	*J.Yo*‘ldoshev	"Jizzax suv ta’minoti” AJ tuman Zafarobod filiali rahbari
21.	*X.Xikmatov*	Zafarobod tuman “Avtoyo‘l” XYFD bo‘limi boshlig‘i
22.	*S.Qo*‘chqorov	Zafarobod tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
23.	*Q.Kubaev*	Zafarobod tuman Fermer, dehqon va tomorqa yer egalari Kengashi raisi
24.	*J.To’ychiev*	Zafarobod tuman O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limi boshlig‘i
25.	*X.Bo’taev*	Zafarobod tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i
26.	*A.Abduraxmanov*	Zafarobod tuman Yoshlar ishlari agentligi rahbari